

## I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021 yil yanvar–sentabr oylarida Farg'ona viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda YaHM) hajmi joriy narxlarda 33 640,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020 yilning tegishli davriga nisbatan 7,4 %ga o'sdi.

2021 yining yanvar–sentabr yakunlari bo'yicha aholi jon boshiga YaHM 8 740,1 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 5,4 %ga o'sdi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaIMni shakllantirishda Farg'ona viloyatining qo'shgan hissasi 6,2 %ni tashkil etdi.


### Yalpi hududiy mahsulot

	mlrd. so'm		2020 yil yanvar–sentabr oyiga nisbatan, % hisobida
	2020 yil	2021 yil	
<b>I. Yalpi hududiy mahsulot, jami</b>	<b>26 508,8</b>	<b>33 640,7</b>	<b>107,4</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	25 612,7	32 511,0	107,4
Mahsulotlarga sof soliqlar	896,1	1 129,7	108,2
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>25 612,7</b>	<b>32 511,0</b>	<b>107,4</b>
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	<b>8 911,3</b>	<b>11 793,9</b>	<b>104,4</b>
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	<b>6 813,8</b>	<b>8 664,0</b>	<b>108,4</b>
sanoat	5 072,9	6 494,9	106,4
qurilish	1 740,9	2 169,1	114,1
<b>Xizmatlar</b>	<b>9 887,6</b>	<b>12 053,1</b>	<b>109,5</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 121,0	2 610,1	110,2
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 531,9	2 039,7	122,4
boshqa xizmat tarmoqlari	6 234,7	7 403,3	106,1

***Yalpi hududiy mahsulot (YaHM) – milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident – institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YAHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali hisoblanadi.***

Hudud iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ining o'sish sur'ati 104,4 %, (YaHM tarkibidagi ulushi – 36,3 %), sanoat – 106,4 % (20,0 %), qurilish – 114,1 % (6,7 %), savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 110,2 % (8,0 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 122,4 % (6,3 %) va xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 106,1 % (22,7 %) ni tashkil etdi.


### **2021 yilning yanvar–sentabrda YaHM ning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari**



Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 96,6 %ni, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,4 %ni tashkil etdi.

Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi YaHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 1,5 % punktga o‘sdi va hisobot davrida 36,3 %ni tashkil etdi. Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda) tarmog‘ining ulushi 0,1 % punktga o‘sdi va 26,7 %ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 2021 yilning yanvar–sentabrida 37,0 %ni tashkil etdi va 2020 yil (38,6 %) bilan taqqoslanganda 1,6 % punktga kamaydi.


**Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo‘yicha tarkibi**  
(yanvar–sentabr holatiga, jamiga nisbatan %da)



Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 8,0 %ni (2020 y. – 8,3 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 6,3 %ni (6,0 %), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 22,7 %ni (24,3 %) tashkil etdi.


### Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi

(yanvar–sentabr, jamiga nisbatan %da)




Joriy yilning yanvar–sentabr oylari davomida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra yalpi hududiy mahsulot aholi jon boshiga 8 740,1 ming so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning (7 017,5 ming so'm) mos davriga nisbatan 5,4 %ga o'sdi. Shu bilan birga viloyatda yirik korxonalar iqtisodiy faoliyati jadallashi oqibatida YaHMda kichik biznes ulushi 71,8 %ni tashkil qildi.

**YaHMda kichik biznesning ulushi**  
(yanvar-sentabr oylari, jamiga nisbatan %da)



**2021 yilning yanvar–sentabrida YaHM ning deflyator indeksi bo'yicha o'sish sur'atlari (%)**



***Iqtisodiy faoliyat turlari***